

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.M.No'monzoda</b>	
Geosiyosiy kurashlar sharoitida ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash muammolarining ijtimoiy-falsafiy tahlili .....	331
<b>F.A.Hamdamova</b>	
Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quv jarayonida loyiha texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash mazmuni .....	334
<b>M.A.Nishonov</b>	
Yangi O'zbekistonda ichki ishlar organi xodimlari kasb etikasini rivojlantirish asoosida vatanparvarlikni tarbiyalash tizimi .....	338
<b>A.A.Meliqo'ziyev</b>	
Bo'lajak pedagoglarda hisobdorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning ijtimoiy va ta'limiy asoslari .....	343
<b>S.S.Asatov</b>	
Yangi O'zbekistonda uchinchi renessans poydevorini qurish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning zamonaviy ahamiyati .....	346
<b>D.Q.Majidova</b>	
Jadidchilik harakatining kelib chiqish tarixi va ta'limoti.....	351
<b>S.R.Qutlimuratov</b>	
Xorazm jadidlarining ilm-fanga bo'lgan munosabati .....	355
<b>N.U.Jamalova</b>	
Globallashuv jarayonida ta'limning o'zgarishi va gumanitar fanlarning o'rni.....	360
<b>M.A.Matmusayeva</b>	
O'yinlarning lisoniy talqinida milliy-madaniy tushuncha ifodasi .....	365
<b>B.B.Xaitbayeva</b>	
Ritmik gimnastikani maktab jismoniy tarbiya tizimiga joriy etishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish .....	368
<b>F.A.Ibroximov</b>	
Talabalarda tahliliy tafakkurni shakllantirish zaruriyati .....	374
<b>R.B.Tursunov</b>	
O'quv jarayonlariga axborot texnologiyalarini joriy etish .....	379
<b>D.B.Toshaliyev</b>	
Oliy ta'lim talabalarini ma'naviy-madaniy merosga aksiologik munosabatini rivojlantirishning ijtimoiy ahamiyati va tarbiyaviy xususiyatlari.....	383
<b>U.Xolova</b>	
Falsafafiy tafakkur taraqqiyot bosqichida ma'rifat davrining boshlanishi. Sharq falsafasida ma'rifat va ma'rifatparvarlik harakatlari («Avesto» misolida ) .....	386
<b>S.E.Baymuradova</b>	
Geografiya fanini masofaviy o'qitishda mobil ta'lim texnologiyalarining imkoniyatlari.....	390
<b>B.M.Qandov</b>	
Turor Risqulov siyosiy faoliyatining boshlanishi va mamlakatdagi siyosiy jarayonlarda tutgan o'rni.....	394
<b>A.M.To'rayev</b>	
Ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati bo'lg'usi kadrlarni kasbiy rivojlantirishidagi muhim omil sifatida .....	400
<b>A.A.Meliqo'ziyev</b>	
Bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik zarurati .....	404
<b>J.Sh.Mamayusupov</b>	
Falsafa fanlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirishning pedagogik jihatlari.....	408
<b>Y.S.Sidiqova</b>	
Pedagogikada neyrotexnologiyalar innovatsion vosita sifatida .....	413
<b>B.X.Karimov</b>	
Ilk uyg'onish davri Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilmiy–falsafiy merosi va uning jamiyat jivojidagi o'rni .....	418
<b>Y.M.Namozova</b>	
Ta'lim va insonparvarlikka asoslangan "Taraqqiyot strategiyasi" jamiyat barqaror taraqqiyotining manbai sifatida .....	423



UO'K: 141.32(5)(091):930.85

**ILK UYG'ONISH DAVRI MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARINING ILMIY –  
FALSAFIY MEROsi VA UNING JAMIYAT JIVOJIDAGI O'RNI**

**НАУЧНО-ФИЛОСОФСКОЕ НАСЛЕДИЕ МЫСЛИТЕЛЕЙ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ  
ЭПОХИ РАННЕГО ВОЗРОЖДЕНИЯ И ЕГО МЕСТО В СОЦИАЛЬНОЙ СТРУКТУРЕ**

**THE SCIENTIFIC AND PHILOSOPHICAL HERITAGE OF CENTRAL ASIAN THINKERS  
OF THE EARLY RENAISSANCE PERIOD AND ITS PLACE IN SOCIAL STRUCTURE**

Karimov Bozarkul Xudayberdiyevich 

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, "Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat"  
kafedrasi dotsenti

**Annotatsiya**

*Mazkur maqolada Birinchi Uyg'onish davri O'rta Osiyo mutafakkirlarining falsafiy merosi va uning jamiyat rivojidagi o'rni falsafiy tahlil qilinadi. Markaziy Osiyo Birinchi uyg'onish davrida madaniyatning yirik o'choqlaridan biriga aylangani hamda uning vakillari jahon sivilizatsiyasiga o'zlarining munosib ilmiy, intellektual hissalarini qo'shishdi. Mutafakkirlarning fanga oid asarlari va qarashlari qisqacha tahlil qilingan.*

**Аннотация**

*В данной статье философски анализируется философское наследие среднеазиатских мыслителей Первого Возрождения и его роль в развитии общества. Центральная Азия стала одним из крупнейших центров культуры в эпоху Первого Возрождения, а ее представители внесли достойный научный и интеллектуальный вклад в мировую цивилизацию. Кратко анализируются работы и взгляды мыслителей на науку.*

**Abstract**

*This article provides a philosophical analysis of the philosophical heritage of Central Asian thinkers of the First Renaissance and their role in the development of society. Central Asia became one of the major centers of culture during the First Renaissance, and its representatives made their worthy scientific and intellectual contributions to world civilization. The works and views of the thinkers on science are briefly analyzed.*

**Kalit so'zlar:** Birinchi Uyg'onish davri, O'rta Osiyo mutafakkirlari, falsafiy meros, Islom madaniyati, Qur'on va Hadislari, tasavvuf, inson qalbi va ruhiyatini, axloqini poklash.

**Ключевые слова:** Первое Возрождение, мыслители Средней Азии, философское наследие, исламская культура, Коран и хадисы, суфизм, очищение человеческого сердца и души, мораль.

**Key words:** The First Renaissance, Central Asian thinkers, philosophical heritage, Islamic culture, the Quran and Hadiths, Sufism, purification of the human heart and soul, and morality.

**KIRISH**

O'rta asr Markaziy Osiyo mutafakkirlari ma'nnaviy merosida xalqlararo do'stlik, hamjihatlik, millatlararo totuvlik, murosasozlik kabi bag'rikenglik g'oyalari muhim mavzular hisoblanib, allomalar tomonidan bag'rikenglik tamoyillari va mezonlari ishlab chiqilgan. Bu davr mutafakkirlari o'zlarining bag'rikenglikning nazariy-axloqiy, ijtimoiy-falsafiy nazariyalarini, fikr va qarashlarini bayon qilganlar. Do'stona munosabatlar va murosasozlik haqidagi qarashlari o'sha davrda tinchlik-osoyishtalikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etgan. O'rta asrlarda (IX-XV asrlar), Markaziy Osiyoda ko'plab xalqlar madaniyati qovushishi asosida arab tilida boy ilmiy va falsafiy fikr shakllanib, bunda turli mamlakatlar vakillari: Xorazmiy, Farg'oniy, Farobi, Marvaziy, Ibn Sino, Beruniy, Mukaffa, Ravandiy, Nizomiy, Zakariyo Roziy, Kindiy, Johid, Ibn Rushd, Ibn Boja, Ibn Tufayl va ko'plab boshqalar faol ishtirot etishdi. Bular fanning turli sohalariga ulkan hissa qo'shgan qomusiy allomalar edi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'rta Osiyo xalqlarining mustaqil taraqqiyoti jarayoni, feodalizmning yanada kuchayishi bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy siljishlar Markaziy Osiyoda ishlab chiqarish kuchlari o'sishi va madaniy yuksalishga olib keldi. Natijada Markaziy Osiyo madaniyatning yirik o'choqlaridan biriga aylandi, uning vakillari jahon sivilizatsiyasiga o'zlarining munosib ilmiy, intellektual hissalarini qo'shishdi.

Muhammad Xorazmiy (780-850) – kelib chiqishi xorazmlik bo'lgan matematik, astronom, geograf, pedagogdir. Uning asarlari tabiiy-ilmiy bilimlarni rivojlantirishga, tabiatni tajriba orqali bilishga bag'ishlangan.

Tabiatni tajriba orqali o'rganish, tabiiy fanlarga, xususan, astronomiya, matematikaga taalluqli katta nazariy muammolarning qo'yillishi tabiiy-ilmiy kashfiyotlar qilinishida ular ulkan rol o'ynashiga olib keldiki, bu kashfiyotlar keyinchalik O'rta va Yaqin Sharq olimlarini borliqning o'zini bilishdan kelib chiqqan holda gnoseologik prinsiplarni ishlab chiqishga undashda yana bir turki bo'ldi. Xorazmiyning ilmiy asarlari ham atrof dunyoga diniy-mistik qarashlarda o'zgartirish yasashga xizmat qildi.

Xorazmiy matematik bilimlarni muvaffaqiyat bilan rivojlantirdi. "Algoritm" tushunchasi "Al-Xorazmiy" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'n ikki asr davomida turli ko'rinish kasb etdi. Xorazmiyning algebra (aljabr)ni kashf etishi ikki qarama-qarshi kattalik: "ma'lum" va "noma'lum" ustida fikr yuritish natijasi bo'ldi. Har qanday tenglama o'zaro bir-birini istisno etuvchi shunday tushunchalar birligidir. Ma'lum va noma'lum qarama-qarshiligining birligi – masala, ushbu qarama-qarshilikni hal etish esa – masalaning yechimi.

Xorazmiyning asosiy asarlari: "Zij", "Quyosh soati taxtasida soat yasash", "Hind hisobi haqida kitob", "Musiqa haqida risola" va boshqalar.

Shahobiddin Ahmad ibn Muhammad Farg'oniy (797-865) farg'onalik bo'lib, astronom, matematik, geografdir. Farg'oniy o'z ilmiy izlanishlari natijasida matematika fanlarini rivojlantirdi. U Yerning o'lchamlari osmon diametriga nisbatan arzimasligini isbotladi. Farg'oniy fikricha, osmon ikki xil harakatda bo'ladi: bu – butun osmon sferasining harakati va sayyoralar harakati; ular bir-biriga qarama-qarshi yo'nalishda harakat qiladi; bunda ularning aylanish o'qlari (va qutblari) bir-biriga mos kelmaydi. Alloma barcha yulduzlarni kattaligiga ko'ra tasnifladi.

Farg'oniy kitobxonlarni olamning tuzilishi, yoritqichlar harakati, kalendor va geografiya bilan tanishtiradi. Osmon yoritqichlari harakatini o'rganishni u birliklar, sutkalar (kecha-kunduz), oylar, yillar, eralardan boshlaydi. Farg'oniyning asosiy asarlari: "Kitob fi san'a al-asturlab" ("Usturlob yasash haqida kitob"), "Jadval al-- Farg'oniy" ("Farg'oniy jadvali"), "Kitob fi usul ilm an-nujum" ("Yulduzlar to'g'risidagi ilmlar unsurlari to'g'risida kitob"), "Hisab al-aqolim as-sab'a" ("Yetti iqlim hisobi") va boshqalardir.

Abu Nasr ibn Muhammad Forobiy (873-950) – qomusiy alloma, faylasufdir. U yunon falsafasini yaxshi bilgan. Forobiy 160 ga yaqin asar yozgan bo'lib, ularni ikki guruhga bo'lish mumkin. Bular: qadimgi yunon olimlarining ilmiy asarlariga sharhlar hamda o'z davri tabiatshunosligi va ijtimoiy-falsafiy fikrinining dolzarb muammolarini ishlab chiqishga bag'ishlangan original tadqiqotlardir.

Abu Nasr ibn Muhammad Forobiy (873-950) – qomusiy alloma, faylasufdir. U yunon falsafasini yaxshi bilgan. Forobiy 160 ga yaqin asar yozgan bo'lib, ularni ikki guruhga bo'lish mumkin. Bular: qadimgi yunon olimlarining ilmiy asarlariga sharhlar hamda o'z davri tabiatshunosligi va ijtimoiy-falsafiy fikrinining dolzarb muammolarini ishlab chiqishga bag'ishlangan original tadqiqotlardir.

Forobiy xudoni birlamchi sabab va birinchi zot deb ta'rifladi. Forobiyning panteistik konsepsiyasiga ko'ra, materiya qator sabablar vositasida xudodan kelib chiqadi, so'ng asta-sekin har xil alomatlar va xususiyatlarni kasb etadi, ayni mahalda xudo o'z xususiy sifatlari va ta'riflariga ega bo'lmagan qandaydir zotga aylanadi. Zamin va osmondagagi barcha sferalar (sohalar) jismga xos, ya'ni moddiy xususiyatga ega. Forobiy shu mavqeadean turib: "Barcha narsalarning umumiy zoti olamdir", u oddiy jismlardan iborat, "olamdan tashqarida hech narsa yo'q" – deb yozadi. U inson aqliga va ratsionalizmga asoslangan mustaqil bilish metodiga asos soldi. Inson barcha bilimlarini tashqaridan oladi, – deydi u.

Forobiy o‘z asarlarida ijtimoiy hayotni mukammallashtirish masalalariga katta e’tibor bergan. Buni uning tomonidan ishlab chiqilgan, kishilarning o‘zaro yordami va farovonligiga tayanuvchi ideal, fozil shahardavlat to‘g‘risidagi ta‘limotdan ko‘rish mumkin. Uning ijtimoiy utopiyasi ijtimoiy-axloqiy g‘oyalarni yanada rivojlantirishda ulkan rol o‘ynadi.

Uning asosiy asarlari: “Ilmlarning kelib chiqishi haqida”, “Fuqarolik siyosati”, “Fozil shahar aholisining fikrlari”, “Falsafaning nomi va kelib chiqishi to‘g‘risida”, “Masalalar mohiyati”, “Aqlning ahamiyati to‘g‘risida”, “Baxt-saodatga erishuv yo‘llari haqida risola” va boshqalar.

Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniy (973-1048) – qomusiy alloma, mutafakkir va gumanist, 150 dan ziyod asar muallifi. Xorazmda tug‘ilgan. Juda yoshligida olim bo‘lib shakllangan. 16 yoshida O‘rta Osiyoda birinchi bo‘lib juda katta anqlik bilan yer globusini yasagan. Beruniyning Ibn Sino bilan yozishmalarida tabiatshunoslik, falsafa, kosmologiya va boshqalarga oid juda muhim muammolar ko‘rib chiqilgan.

Beruniy tabiatni real mavjud, “tabiiy kuch” baxsh etilgan va muntazam harakatda, o‘zgarishda bo‘lgan hodisa sifatida ko‘rib chiqqan. Bunda Beruniy atrof olam asosini moddiy ibtido, aynan olganda, “suv, olov, havo, tuproq” tashkil qilishini tan oladi. Beruniy fikricha, tabiat o‘z qonunlari bo‘yicha amal qiladi, materiya esa, o‘z shaklini o‘zgartirib, adabiyligicha qoladi. Lekin deist bo‘lgan Beruniy materiya va tabiat oliy zot, ya’ni “Xoliq” tomonidan yaratilgan, deb hisoblaydi.

Beruniy ilmiy asarlarida tabiat haqidagi ta‘limotga alohida ahamiyat bergen. Uning fikricha, bilimning asosi hissiy bilimlardir. Masalan, Beruniy: “Undan (odamdan – F.F.) ikki tuyg‘uni: eshitish va ko‘rishni ajratdi. Bular unga hissiy idrok etishdan hukm chiqarishga o‘tish bosqichi bo‘lib xizmat qilishdi”, – deb yozadi. Bunda u tajriba va ilmiy metodni ishlab chiqishning ahamiyatini alohida ta‘kidlagan.

Beruniy buyuk baynalmilalchi va gumanist alloma bo‘lgan edi. U aql, mehnat, erkin tanlash insonning hayotini va ijtimoiy ahvolini belgilaydi, deb hisoblardi. Beruniy xalqlar o‘rtasida tinchlik va do‘stlik uchun otashin kurashchi bo‘lgandi. U urushlar jarayonida madaniyat va fanga qirg‘in keltirilishini qoralagan edi. “Hindiston” asarida u o‘zaro nizo va qirg‘inlar (barcha) xalqlarni xarob etayotganini alam bilan yozadi. Beruniy hindlarning ta‘limotlarini tanqidiy o‘rganib, ularni boshqa xalqlarning ilmiy yutuqlari bilan qiyoslagandi.

Beruniyning asosiy asarlari: “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Geodeziya”, “Hindiston”, “Qonuni Mas‘udiy”, “Mineralogiya”, “Dorivor o‘simpliklar haqida kitob”, “Munajjimlik san‘atidan boshlang‘ich tushunchalar” va boshqalar.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) – faylasuf, hakim, olimdir. Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog‘ida tug‘ilgan. O‘rta Osiyo va Eronda turli hukmdorlar huzurida hakim (tabib) va vazir lavozimlarida xizmat qilgan.

Ibn Sinoning “Al Qonun fit-tib” asari u tomonidan yigirma yil davomida to‘plab bir tizimga solgan materiallarni o‘z ichiga oladi. Bu asar, aslida, o‘sha davrning o‘ziga xos tibbiy bilimlari qomusi bo‘lgan. Mazkur asarda oddiy va murakkab dorilarni tayyorlash usul va uslublari ko‘rib chiqiladi, farmakologiyaning asosiy prinsiplari, kasalliklar mohiyati va mazmuni, ularning umumiy sabablari hamda yuzaga chiqishi bayon etiladi, “kasallik”, “sabab”, “yuzaga chiqishi” singari va h.k. tibbiy tushunchalarga ta‘rif beriladi. Ibn Sino o‘z asarlarida real dunyoning abadiyligi va yaratilmagani haqidagi g‘oyani aniqlab, rivojlantirar ekan, barcha konkret narsalar mohiyati (zoti) bo‘lgan materiya abadiy mavjud bo‘lib, rang-barang shakllarda namoyon bo‘lishini qayd etadi, Uning nuqtai nazariga ko‘ra, materiyada sabab va oqibat mavjud. Jismilar va ularning shakllari ajralmasdir. Materiyasiz jismiy shakl bo‘limganidek, jismiy shaklsiz materiya ham yo‘q. Shu munosabat bilan Ibn Sino bunday deb yozadi: “Unsur shakli – bu uning sezgi bilan emas, aql bilan bilish mumkin bo‘lgan tabiat. Ana shu tabiat mazkur unsurga ko‘p ta’sir ko‘rsatadi”, u “har bir jismda alohida sifat va alohida miqdorni keltirib chiqaradi”. Ibn Sinoning aytishicha, odam besh sezgi organi yordamida real mavjud bo‘lgan tashqi ta’sirni qabul qiladi hamda ushbu ta’sir natijasini xotirasida mustahkamlaydi. Ibn Sino o‘z davri fani ma’lumotlaridan kelib chiqib, tibbiyot va falsafadagi: tasavvur, taxayyul, xotira, aql, zakovat, ichki tuyg‘u (intuitsiya) kabi va boshqa juda muhim tushunchalarning mazmunini ochib beradi.

Bizgacha Ibn Sinoning 250 dan ziyod asari yetib kelgan. Bular, masalan, 5 kitobdan iborat “Al Qonun fit-tib” (“Tib qonunlari”), “Ruhiyatni muolaja qilish kitobi”, “Kitob ash-shifo”, “Kitob an-najot”, “Adolat kitobi” (20 jildli), “Donishnoma”, “Salomon va Ibsol” va boshqalardir.

**XULOSA**

Demak, bizning ajdodlarimiz ilm-fanning turli sohalarini va jamiyatni rivojlantirishga katta hissa qo'shishgan. Buni yodda tutish va o'z mamlakati tarixini bilish O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Ajdodlar tomonidan yaratib ketilgan ma'naviy hamda moddiy boyliklar yoshlarda tarixiy ong va tarixiy xotirani shakllantirish hamda rivojlantirishning muhim omilidir.

Mustaqillik yillarda respublika rahbariyati hamda olimlari tomonidan yoshlarda tarixiy ong va tarixiy xotirani monand ravishda shakllantirish hamda rivojlantirish uchun tarixiy haqiqatni qayta qurish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi: buyuk ajdodlarimiz – Xorazmiy, Farg'oniy, Forobi, Beruniy, Ibn Sino va ko'plab boshqa shaxslar ilmiy hamda ijtimoiy faoliyatining yangi jihatlari aniqlandi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Фараби. Существо вопросов. // Избранные произведения мыслителей Ближнего и Среднего Востока. – М., 1961. – С.16.
2. Фараби. Существо вопросов.// Избранные произведения мыслителей Ближнего и Среднего Востока. – М., 1961. – С. 14-17.
3. Носирхўжаева Г. Форобий ва фалсафа тарихи. //Мулоқот. –2004. – № 5. – Б. 19-21.
4. Беруний. Танланган асарлар. 5 томлик. –Тошкент: Фан, 1957-1973 йиллар.
5. Kakhramonovna, K. S. (2024). THE ROLE OF SPIRITUAL EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN. JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH, 1(3), 84-102.
6. Jahongir, S. (2020). Philosophical views of Umar life. Academicia. An International Multidisciplinary Research Journal.–India, 10(4), 360-364.
7. Шодиев, Ж. Ж. (2020). Умар Хайёмнинг ижтимоий-ахлоқий қараашлари. Фалсафа ва хуқуқ.–Тошкент, 3, 107-110.
8. Shodiev, J. (2021). The problem of knowledge in the philosophical views of Umar Khayyam. Imam al-Bukhari IBS Journal, 2.
9. Шодиев, Ж. (2022). Илк уйғониш даврида–комил инсонни шакллантириш ватарбиялашда тасаввuf таълимотининг ўрни. Scientific Bulletin of NamSU-Научный вестник НамГУ-NamDU ilmiy axborotnomasi–2022-yil\_4-сон, 229.
- 10.Шодиев, Ж. Ж. Мамлакатимиизда инсон қадрини юксалтиришнинг ижтимоий-фалсафий масалалари. Қарду хабарлари. Илмий-назарий, услубий журнал. Maxsus сон (Ижтимоий фанлар).
11. Shodiev, J. J. (2020). INTERPRETATION AND DESCRIPTION OF UMAR KHAYYAM RUBAYA. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(9), 206-211.
12. Jurakulovich, S. J. (2022). AGAINST IGNORANCE-FIGHTING WITH ENLIGHTENMENT THE MAIN CRITERIA IN IMPROVING HUMAN VALUE. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(10), 1160-1164.
13. Jurakulovich, S. J. (2022). ATTITUDE TO HUMAN DIGNITY IN THE PERIOD OF AMIR TEMUR AND TEMURIDS DYNASTY. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(5), 43-47.
14. Shodiyev, J. (2021). JAMIYATDAGI MEHNAT MUNOSABATLARI SHAROITIDA MA'NAVİY SALOHİYAT. Журнал истории и общества, (2)
15. Шодиев, Ж. Ж. (2023, June). ЗНАЧЕНИЕ ИСТОРИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В СОЗДАНИИ ФУНДАМЕНТА ТРЕТЬЕГО ВОЗРОЖДЕНИЯ И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В УКРЕПЛЕНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 2, No. 15, pp. 124-130).
16. JJ Shodiev. A STEP TOWARDS HUMAN DIGNITY. GOLDEN BRAIN 1 (24), 59-67.
17. Jo'raqulovich, S. J. (2023). O 'ZBEKISTON-INSON QADR TOPGAN YURT. SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY, 2(13), 191-197.
18. Шодиев, Д. Д. (2023). INSON QADRI VA UNING MANFAATLARI HAMMA NARSADAN USTUN. НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ "МА'MUN SCIENCE", 1(2).
19. Shodiyev, J. J. (2023). ROLE OF NUMBERS IN HUMAN WORTH AND DEVELOPMENT. SCHOLAR, 1(28), 252-257.
20. Shodiyev, J. J. R. (2023). INSON-BU DUNYO FARZANDI. Educational Research in Universal Sciences, 2(8), 357-369.
21. Jahongir, S. INTERPRETATION OF THE IMAGE OF MAY IN THE RUBA OF UMAR KHAYYAM. Zbiór artykułów naukowych recenzowanych., 126.
22. Qakhrova, S. (2023). PHILOSOPHICAL AND THEORETICAL TEACHING OF AMIR KHUSRAV DEHLAVI. Farg'ona davlat universiteti, (5), 17-17.
23. Jurakulovich, S. J. (2024). THE ROLE OF SPIRITUALITY IN THE IMPLEMENTATION OF THE DEVELOPMENT STRATEGY OF THE NEW UZBEKISTAN. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 11(11), 307-311.

24.Jurakulovich, S. J. (2024). GLORIFYING MAN AND INCREASING HIS VALUE IS THE MAIN GOAL OF THE THIRD RENAISSANCE. INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY JOURNAL FOR RESEARCH & DEVELOPMENT SJIF 2019: 5.222 2020: 5.552 2021: 5.637 2022:5.479 2023:6.563 2024: 7,805 eISSN :2394-6334 <https://www.ijmr.in/index.php/imjrd> Volume 11, issue 11 (2024). Pp. 389-394.